

Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasining "Ishonch telefon"lariga murojaat etish

tartibi bo'yicha

YO'RIQNOMA

1. Mazkur Yo'riqnomaning maqsadi.


O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati to'g'risida"gi va "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlariga asosan Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi (kelgusi matnlarda - Inspeksiya) va uning hududiy bo'linmalarida iste'molchilarga qulaylik yaratish maqsadida, "Ishonch telefoni" xizmatlari tashkil etilgan.

"Ishonch telefoni" xizmatlari iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida (mahalliy, shaharlararo, xalqaro, mobil aloqa, ma'lumotlar uzatish, teleradioko'rsatuvlari tarqatish, efir-kabel televideniesi, pochta va matbuot tarqatish tarmog'i) ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida tashkil etilgan.

2. Interaktiv xizmatdan foydalanish.


Inspektsiyaga oid ma'lumotlar bilan tanishish uchun ochilgan web-brauzerga www.gis.uz manzili (1- rasm) kiritiladi. Klaviaturaning "ENTER" tugmasi bosilgandan so'ng Inspeksiya sayti oynasi ochiladi.

Ma'lumotlar bilan tanishish uchun qulay bo'lgan tilni tanlash maqsadida strekani sayt oynasining tepa chap burchagida joylashgan yozuvlardan (O'Z, RUS, EN) (1- rasm) biriga olib kelib, sichqonchanning chap tugmasini bosish zarur.




1-rasm

Sayt oynasining o'ng qismida Inspektsiyaning 237-01-11 raqamli "Ishonch telefoni" xizmatiga shanba va yakshanbadan tashqari har kuni soat 9⁰⁰ dan 18⁰⁰gacha (tushlik 13⁰⁰dan 14⁰⁰gacha) qo'ng'iroq qilish mumkinligi to'g'risidagi ma'lumot joylashtirilgan (2-rasm).




2-rasm

Inspeksiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy bo‘linmalaridagi “Ishonch telefoni” xizmatlaridan foydalanish uchun “Hududiy bo‘linmalar” sahifasidan Hududiy bo‘linmani tanlash funksiyasi tanlanadi (3-rasm).




3-rasm

Ochilgan oynadan hududiy bo‘linmalardan biri tanlanadi (4-rasm).




4-rasm

Ochilgan sahifada hududiy bo‘linmalarining “Ishonch telefoni” raqamlari (shahar kodi bilan) hamda manzillarini olish mumkin bo‘ladi (5-rasm).



5-rasm

Inspeksiyaning hududiy bo‘linmalari haqida batafsil ma’lumotlarga ega bo‘lishni istasangiz, “Batafsil” tugmasi bosiladi (6-rasm).



6-rasm

“Ishonch telefoni” xizmatiga murojaat etishda “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida murojaatchi o‘zi haqida ma’lumotlarni (ismlari, yashash manzilini va qayta bog‘lanish uchun telefon raqamini) to‘liq bayon etishi kerak.

Siz o‘z shaxsiy ma’lumotlaringizni to‘g‘ri ma’lum qilgan bo‘lsangiz, sizning murojaatingiz O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq kelib tushgan kundan e’tiboran o‘n besh kun ichida ko‘rib chiqilib, Siz so‘ragan shaklda rasmiy ravishda javob yuboriladi. Qo‘shimcha o‘rganish va (yoki) tekshirish, qo‘shimcha hujjatlarni so‘rab olish talab etilganda esa bir oygacha bo‘lgan muddatda ko‘rib chiqiladi.

Zarur hollarda, murojaat joyning o‘ziga borib ko‘rib chiqilishi mumkin. Murojaat etuvchi yo‘qligida murojaatni ko‘rib chiqish imkoni bo‘lmasa, murojaatchi chaqirilishi mumkin. Chaqirilgan murojaat etuvchi kelmagan taqdirda murojaatni uning ishtirokisiz ko‘rib chiqish imkoni yo‘qligi haqida javob yuboriladi.